SHAYBONIYLAR DAVRI KARMANA TARIXIDA MUHIM ROL O'YNAGAN SHAYX VA AVLIYOLAR TASNIFI

Botirov Nodir Sadir o'g'li

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi assisent o'qituvchisi

Annotatsiya: *Shayboniylar sulolasi davrida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida hukmdorlarga ustozlik qilgan, ularni adolatga chorlagan shaxslarning o'rni kattadir. Ularning xalqni rizoligiga erishida hukmdorlarga bergan ilmu- hikmatlari, duolari siyosiy jarayonlardagi nizolarni hal etishdagi ahamiyati diqqatga sazovor hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi Karmanada faoliyat olib borganligi diqqatga sazovordir va Karmana tarixini o'rganishda ular haqidagi ma'lumotlar ushbu maqolada qisqacha bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *Karmana, Hazrati Azizon Mavlono Vali, Qosim Shayx Azizon, Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Valiy, avliyo, taqvodor, silsila, Movarounnahr, Dabusiya, qushbegi, otaliq, shariat, ahkom, qal'a, xalifa, ulamo, murid, sufiy, tafsir, hadis*.

KIRISH. Karmanada shakllangan shayboniylar davri ilmiy, adabiy, diniy va madaniyatning tamal asosi bo'lgan tasavvuf ilmi ya'ni islom tasavvufi o'z tarixi shakllanishi va takomillashish jarayoniga ega bo'lgan. O'sha davr mashoyixlari va ilmli qatlamni haqiqat manziliga yetaklagan islomiy tasavvuf-e'tiqod, axloq, adabiyot, falsafa va hayotning turlituman jabhalaridan chuqur joy olgan yangi bir muhit ilmlilar muhiti jadal shakllandi. Shu davrda Buxoro va Samarqanddan Karmanaga taklif qilingan mudarrislar, ilm ahli, sufiylar ibodatda, axloqda, muomalada, himmatda, sahovatda, barcha insoniy fazilatlarda ko'pchilikka o'rnak bo'lishgan. Yangidan ko'chirilgan qadim manbalarning Karmana atrofida ko'p yoyilishi butun Karmana ahlini hayot tarziga katta ta'sir ko'rsatdi.

XIV-XV asrlarda yashab o'tgan shoirlar, tarixchilarning asarlari keng o'rganildi. Jumladan, Imom G'azzoliy, Abdurahmon Jomiy, Sayyid Qosimiy va

Nasafiylarning asarlari keng va mukammal o'rganila boshlandi. Tafsir kitoblari hamda hadis kitoblarining ko'plab xalq orasida yoyilishi va o'rganilishi kishilarda ilmga katta havas uyg'otdi. Diniy asarlar bilan bir qatorda tibb ilmi, tabiat, handasa hamda ilmi nujumga taalluqli adabiyotlar ham ko'paya boshladi. Shayboniy sultonlarning ilmga, fanga qiziqishi oqibatida Karmanada o'ziga xos xattotlik maktabi vujudga keldi. Shu bilan bir qatorda Samarqand, Buxoro, Hirotdan kitoblar olib kelinib, bozorlarda sotilishi avj oldi. Shu davrda Shayx Xudoydod Valiy, Qosim Shayx Azizon, Shayx Sayyid Miyonqoliy, Shayx Vali Azizon Kuhizarriniy va boshqa o'nlab ulamolarning yetishib chiqishiga to'liq ilmiy muhit shakllanadi.

ASOSIY QISM. Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Valiy 866 hijriy (1461-1462 milodiy) yilda hozirgi Navoiy viloyati hududiga qarashli Karmana yaqinidagi Saranj (Sharanj) tog' mavzesida tug'ilgan. 939 hijriy (1532 milodiy) yilda Samarqand viloyati, Jomboy tumani, G'azira qishlog'ida vafot etgan. O'z davrida yassaviya tariqatining ko'zga ko'ringan yetuk vakili, peshvosi bo'lgan. U kishining hurmat va e'tibori zamon podshohlari nazdida ham

baland bo'lgan. Shayboniyxon, Jonibek Sulton, Bobur Mirzo, Abu Saidxon, Ubaydullaxon kabi hukmdorlar Shayxni o'zlariga pir bilib, maslahatlariga amal qilishgan.[1]

Qadim Buxoro (Karmana) Miyonqoli o'zining olim-u ulamolari, hunarmandlari, ilm sohiblari bilan butun Movarounnahrda o'z mavqeyiga ega bo'lgan sersuv, serhosil, tabiati bilan xalqlarni o'ziga jalb qilgan voha hisoblanadi. Turk-islom dunyosidagi buyuk mutasavvuf olim, Sharq tasavvufida chuqur iz qoldirgan, yassaviya tariqatining asoschisi Hoja Ahmad Yassaviyning izdoshlaridan biri Hazrati Azizon Mavlono Vali bo'lib, ul zot (1461-1532) Hazrati Shayx Xudoydod Valiyning xos shogirdi va birinchi xalifalaridan hisoblangan. Tarixiy manbalarda Hazrati Azizon Mavlono Valini "Zohiriy va botiniy ilmlarni jamlagan oriflar namunasi, olimlar sultoni, fuqarolar hujjati, taqvodorlar

yordamchisi, zamona yagonasi, xosi-omga maqbul bir inson edilar, bu silsila u kishi” deb ta’rif etishgan.[2]

Shu davrda Shayx Xudoydod Valiyning ilmiy salohiyati uning atrofida o’nlab ilmga chanqoq shaxslarning to’planishi, ilm majlislarining tez-tez uyushtirilishiga sabab bo`ladi hamda yassaviya, kubroviya va naqshbandiya tariqati vakillarining o’zaro ahillikda ilm olishi va tariqatlar hamkorligi yuqori darajaga chiqadi. Har xil tariqat vakillari bir-birlarini juda hurmat qilishar, o’zaro ilm majlislarida ahillik bilan tariqatlar orasidagi farqlarni hurmat qilgan holda munosabatda bo’lishardi. Shu davrda yassaviya tariqatining davomchisi sifatida Shayx Xudoydod Valiy faol faoliyat olib boradi va umri davomida 50 dan ziyod muridlarini shu tariqat rasm-rusmlari va odatlari tartib-qoidasi asosida tarbiyalaydi.

Sharofiddin Roqimiyning “Tarixi Roqimiy” asarida keltirilishicha,

1551-yilning kuzida Buxoro va Samarqandni temuriy Bobur Mirzo egallab, o’zbek sultonlari Turkistonga chekinayotganida Shayx Xudoydod Valiy ularni koyib: “Senlarga o’zeklar kerak emasmu?” deb xitob qilganlar. (O’sha zamon piru murshidlarining Bobur Mirzoga qarshi chiqishlariga sabab shu ediki, Movarounnahr ahliga ko’p jabrlar yetkazgan qizilboshlilar bilan Bobur Mirzo kelishgan holda o’zbek shayboniy sultonlariga qarshi urush olib borgan edi). Aynan shu voqeaning davomi Muhammad Olim Shayx Azizonning “Lamaxot min nafaxot ul-quds” asarida yanada kengroq berilgan. Unda keltirilishicha,”Amir Nabira” nomi ila mashhur bo’lgan “Amir Sunatillo” ismli kishi naql qilibdurki, Shohbekxonning (ya’ni Shayboniyxonning) 1510-yilda shahid bo’lganidan so’ng jami o’zbek sultonlari Movarounnahrni tashlab, Dashti Qipchoqqa qochadilar. Hokimiyatni esa temurzoda Bobur Mirzo egallab oladi. Bir necha muddat o’tgach Hazrati Shayx Xudoydod Valiy o’z sahobalaridan biri – Orif so’figa xitob qilib deydilar: ”Orif senga o’zbeging kerakmu?” Orif tavoze ila sukut saqladi. Shunda Hazrati Shayx yana dedilar: ”Iztirob qilmag’ilki, yaqinda yana o’zbek podshoh bo’lg’usidir”. Shundan so`ng Ubaydulla Sulton hukmdorlik taxtiga chiqadi. [3] Shayx Xudoydod Valiy dindor shaxs hisoblanib hukmdorlarni ham, xalqni ham

to’g’ri yo’lga da’vat etgan. Mamlakatni adolatli boshqaruvida hukmdorlarga maslahatda bo’lgan.

Yana bunday shaxslardan biri Qosim Shayx Azizondir. U kishi xalq orasida Mavlono Vali Azizon madordod (tug’ma) avliyo nomi bilan ham atalar edilar. Hazrat Azizon Qosim Shayx talabalikdan to hayotlari oxirigacha Mavlono Vali Kuhizarriniy suhbatlarida bo’lib turganlar [4]. Hazrati Mavlono Vali Azizon juda taqvodor bo’lganlar. O’sha davrda Buxoro xoni Abdullaxon II Miyonqolda bo’lganida bir kuni Vali Azizonga kiyik go’shtini hadya qilib olib keladi, u zot olmaydilar. Debdilar: “Gap kiyikda emas, gap shundaki, kiyikni ushlagan jondor qaysidir qassobning go’shtidan yeb chopgan, ortidan minib choptirilgan ot qaysidir faqirning arpasini yeb chopgan. Biz ahd qilganmiz, bunday shubhali narsalarni olmaslikka ma’zurlimiz” va ul kiyik go’shtini rad etibdilar. Abdullaxon esa umrlari oxirigacha bu voqeani ko’p yodga olgan ekanlar [5].

Shayx Vali Ko’hizarriniyning xalifalari Qosim Shayx Azizon Miyonqoliy umr bo’yi Shayx Xudoydod Valiyga, Shayx Azizon Valiga va boshqa ko’plab yurtimiz ulamolariga sidqidildan xizmat qilib, oriflar sultoni, buzruklar burxoni, o'sha vaqt qutbi, avliyolar madadkori, zamona yagonasi, avom xalqning murojaatgohi, valiylik manbai va asosi, ilm sohibi, shariat belgilarini bayon etuvchi, tariqat qoidalarini ayon etuvchi, olam soliklariga ilohiy xazinalarni kashf etib beruvchi, avliyolar umidi, faqirlar tayanchi kabi nomlar bilan ulug`langan.

Shayx Xudoydod Valiy ham, Shayx Vali Azizon va Qosim Shayx Azizonlar o’z davrida xonlar, sultonlar va beklarga o’z ta’sirlarini o’tkaza olishgan. Shayboniy sultonlardan Jonibek Sulton, Iskandar Sulton, Abdullaxon II lar, Samarqand, Kesh hamda Shahrisabz hokimlari bu zotlarning muridlari bo’lishgan.

Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Valiyning xalifalari Sayyid Miyonqoliy XVI asrda u zotning farmonlari bilan o’zlarining rahbarligida “Manoqibi Shayx Xudoydod Valiy” asarini yozgan. Hazrati Sayyid Miyonqol nohiyasidagi Kufinga qarashli Maydon dahasida vafot etadilar va o’sha joyda dafn qilingan. Hazrati Mavlono Vali ul zot qabrlari uzra kichik maqbara bino qilganlar. Mavlono Sayyid

Miyonqoliy haqida Muhammad Olim Shayx Azizonning “Lamaxot min nafaxot ul-quds” asarida quyidagi ta’rif aytib o’tilgan: “Taqvodorlar yetakchisi Mavlono Sayyid hofizi Qur’on va tariqatda to’liq ahliyatliklari bor hamda Shayx Xudoydod Valiyning qadim yoronlaridan edilar” [6].

Mavlono Vali haqida Muhammad Nosiriddin al-Xusayniy o’z asarida: “Buyuk ikki pir, ilm darg’alari Mahdumi A’zam Sayyid Ahmad Kosoniy hazratlari (1463-1542) va Hazrati Azizon Mavlono Vali Ko’hizarriniylarning so’nggi uchrashuvlarini tasvirlab, bu uchrashuvda Mahdumi A’zam o’z asarlarini Mullo Vali Azizonga hadya qilib beradilar. Bundan ikkalasining bir-birlariga muhabbatlari ziyoda bo’ldi va xayrlashdilar. O’sha yili Mullo Vali Azizon dunyodan o’tdi” deb yozadi [7]. Hazrati Mavlono Azizon Vali Ko’hizarriniy 1532-yilda vafot etganlar va vasiyatlariga binoan Hazrati Sayyid Miyonqoliyning yonlarida dafn etilganlar. Muhammad Olim Shayx Azizonning “Lamaxot min nafaxot ul-quds” asarida yozilishicha, tog’dan ariq qazib kelib qabristonga ko’plab daraxtlar o’tqazishgan. Muridlari aytishicha, Hazrati Qosim Shayx ariq qazishda qo’llariga cho’kich olib yer qaziganlari aytib o’tilgan [8].

Shayboniy sultonlardan Abdullaxon II ning Hazrati Qosim Shayx Azizonga hurmati baland bo’lgan, doim u zotning duolarini olishga harakat qilgan, maslahatlariga quloq tutgan. Buni quyidagi misollardan bilib olish mumkin:

Bir kuni Abdullaxon II boshyalang va bo’ynida sirtmoq bilan Shayxning oldiga keladi. Shayx Karmanada edi, “meni Makkai Mukarramaga ketishimga ruxsat bering”,- deydi. Men dushmanlar, ya’ni Dashti Qipchoq va Toshkent sultonlari bilan olishib charchadim, hatto ukam Xusrav Sultonni ham ular o’ldirishdi deb aytadi. Shunda Hazrati Qosim Shayx o’zlarining yaktagi va sallasini berib, otga endi o’tiring deydi va ortidan duo qiladi. Shundan so’ng hamma dushmanlari ustidan g’alaba qozongan Abdullaxon Shayx uchun xonaqoh qurdiradi va shu joyda Shayx hazratlari (hijriy 986/ milodiy 1578-79-yillarda qurilgan) hijriy 989/ milodiy 1581-yilda vafot etadi [9].

Milodiy 1550-yilda Abdullaxon II o'z piri Qosim Shayxdan fotiha olib, birgalikda Karmana, Dabusiya qal'alarini himoyasiga kirishadilar. Abdullaxon II ning otalig'i Binsayyidbiy qarluq urug'idan, uning ukasi Shohsayyidbiy hamda Ja'farxon qipchoq, Tinsayyid otaliq jaloyir, Navro'z qushbegi, Amir Abdulloh sadr, Amir xalifalar bu ikki qal'ani saqlash uchun mas'ul etib belgilanadi [10]. Qosim Shayx hazratlarining Abdullaxonning mamlakatni boshqarishida faol ko'mak berganligi ham ul zotning yurt ravnaqi uchun beqiyos hissasidan dalolatdir. "Abdullanoma"da shunday jumlalar keltirib o'tilgan: Ul hazratning kimyoxosiyat hayollarida butun viloyat jamiyatini birlashtirish, turli (tabaqadagi) xalqni yaxshi kun kechirishi, mamlakat va mulkning osoyishtaligi, yaxshilarga himmat va iltifot (ko'rsatish) bo'lgan, doimo sultonning qarzini talab qiluvchilarini, sud amaldorlarining zo'rlash va man etishlarini tugatishda, xos va avomlarga nisbatan ma'murchilik hamda obodonchilik (yaratishda) to'la tirishqoqlik ko'rsatib, ul hazratning (ya'ni Abdullaxonning) madad hamda yordamlarini jahonning turli tomoniga yetkazgan, bor kuchi va harakati bilan barcha shahar hamda mamlakatlardagi o'jarlar ahlining jabr, bedodlik va zo'rlik qo'lini kishilarning umid cho'ntagiga (kirmasligi uchun) kalta qilgan [11].

Xulosa. Ma'lum bo'lmoqdaki, Shayboniylar davri Karmananing ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda hali ancha manbalar bor bo'lib, ularni topib o'rganish, arab va fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib, xalqimizga yetkazish, olimlarimiz, siz-u bizning oldimizda turgan kechiktirib bo'lmaydigan vazifadir.Yurtimizda yuqorida nomlari tilga olingan shaxslarning faoliyatlari kengroq yoritilib berilsa, ularning nomlariga atab ilm maskanlari ochilsa, maqbaralari obod etilsa, madrasalar tashkil etilsa, ko'pchilikda jumladan, chet ellik mutaxassislarda ham bu qiziqish uyg'otsa ajab emas.

Shayboniylar davrining olimlari, shayxlari, hukmdorlari ham xalqni ilmni o'rganishga da'vat etishgan, ko'plab ilm dargohlari ochishgan, madrasalar qurishgan, obodonchilik ishlarida tashabbuskor bo'lishgan, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot rivojida muhim rol o'ynashgan.

Karmana tarixini o'rganishda o'sha davrdagi tarixiy shaxslarning asarlari, faoliyatlarini o'rganish zarur bo'lib, ular qimmatli manba hisoblanadi. Mustaqil va ozod vatanimiz har jihatdan bugungi kunda rivoj topib bormoqda, ajdodlarimiz orzu qilgan farovon davlat shakllanib bormoqda. Bularning barchasi uzoq tarixiy davrni o'z ichiga oladi.Biz buyuk allomalarimiz, tarixiy shaxslarimiz bilan faxrlanib qolmasdan, shunday shaxslarga munosib voris bo'lish uchun ham ko'proq ilmiy izlanishlar olib borishimiz darkor. Ulug' yurtning iymonli, ilmli farzandi bo'lish uchun intilishimiz, allomalarimizning tarixiy merosini asrab avaylashimiz, o'rganishimiz, yurtimiz fidoyilarini va minglab olimlarimizni, avliyolarimizni ibratli hayot yo'llarini, faoliyatlarini o'rganishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shayx Xudoydod Vali "Ulug' Avliyo" Toshkent. 2017. "O'zbekiston" 3-4-bet.
2. Muhammad Olim Shayx Azizon "Lamaxot min nafaxot ul-quds" ilmiy-ommabop nashr. Samarqand.O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti Toshkent. 2006. 355-bet.
3. Shayx Xudoydod Vali "Ulug' Avliyo" Toshkent. 2017. "O'zbekiston" 229-230-bet
4. Muhammad Olim Shayx Azizon "Lamaxot min nafaxot ul-quds" ilmiy-ommabop nashr. Samarqand. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti Toshkent. 2006. 86-bet.
5. Muhammad Olim Shayx Azizon "Lamaxot min nafaxot ul-quds" ilmiy-ommabop nashr. Samarqand. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti Toshkent. 2006. 160-bet.
6. Muhammad Olim Shayx Azizon "Lamaxot min nafaxot ul-quds" ilmiy-ommabop nashr. Samarqand. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti Toshkent. 2006. 102-bet.
7. Muhammad Nosiriddin al-Husayniy "Tuhfat ul-zohirin" 126-bet.

8. Muhammad Olim Shayx Azizon “Lamaxot min nafaxot ul-quds” ilmiy-ommabop nashr. Samarqand. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti Toshkent. 2006. 163-bet.
9. Muhammad Olim Shayx Azizon “Lamaxot min nafaxot ul-quds” ilmiy-ommabop nashr. Samarqand. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti Toshkent. 2006. 170-bet.
10. Bartold Vasiliy Vladimirovich “Sochineniya” VIII tom. Moskva. 1973. “Nauka” 723.
11. Muhammad ibn Arab Qatag’on “Musaxxir ul-bilod” (“Mamlakatlarning egallanishi”) Toshkent. 2009.